



## CHET TILI DARSLARIDA TALABALARING IJTIMOIY KOPMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**R. B. Usmonova**

O'zJTSU o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ta'lim jarayonida talabalarining ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish oliy ta'lim tizimining asosiy talabidir. Maqolada talabalarning ijtimoiy faoliyatdagি o'rnni mustahkamlashda til o'rganishning dolzarbligi, bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy kompetentligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, kompetentsiyaga asoslangan ta'lim, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar, zamonaviy texnologiyalar.

Zamonaviy pedagogika fanida kompetentsiya tushunchasi keng tarqalgan. Bu tushuncha mutaxassis-kadrning o'z kasbiy faoliyatidagi mahorat darajasini belgilab beradi. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik holatlari, jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib kompetensiya turlari tanlanadi. Biz tadqiq obyekti sifatida belgilab olgan ijtimoiy kompetensiya bevosita jamiyat bilan bog'liq tarzda o'zlashtiriladi. Talabalarda ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish bir qancha omillarga bog'liq. Bunday omillarga:

- o'quv muassasasining turi;
- o'quvchining psixologik xususiyati;
- til tajribasi;
- o'quv predmetiga ajratiladigan vaqt.

Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'rgatishga alohida ahamiyat beriladi. Chunki talaba bir vaqtning o'zida ham bilim oladi, ham o'zga madaniyat bilan tanishadi, ham yangi bir ijtimoiy guruh bilan munosabatga kirishadi. Bun jarayonda talabaning ijtimoiy kompetentligi shakllanadi. Bu kompetebsiya quyidagilarni o'z aksini topadi:

- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili bilan bir qatorda birorta xorijiy tilni mukammal o'rganish va nutqiy muloqotda undan samarali foydalana olish;
- fikrni og'zaki va yozma tarzda ravon va tushunarli bayon qila olish, vaziyatdan kelib chiqqan holda jumlalarni mantiqan to'g'ri tuza olish va tahlil qilish;
- ijtimoiy adaptatsiya, o'zaro muloqot jarayonida nutq madaniyatiga amal qilish, jamoa bilan hamkorlikda ishlay olish;
- kommunikatsiya jarayonida suhbатdosh fikrini tinglay olish, uni hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qilish, tinglovchini ishontira olish;
- ziddiyatli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish, tushunmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

Chet tilini o'rganishda nutqiy malakalarning o'rni beqiyos. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozishdan iborat malakalardan ko'zlangan asosiy maqsad til o'rganuvchining zarur



informatsiyalarni o‘zlashtira olishi va undan foydalana olishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Chet tilini o‘rganish o‘rganilayotgan til egalarining madaniyati bilan chambarchas holda amalga oshiriladi. Lisoniy birliklar va lingvokulturologik xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratish zarur. Bundan tashqari talaba xorijiy tilni samarali o‘rganishi uchun o‘z ona tilining lisoniy qurilishi, grammatikasi va orfoepiyasini puxta o‘rgangan bo‘lishi talab etiladi. Chunki talaba yangi til o‘rganishda o‘zi uchun tanish bo‘lgan tilning imkoniyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq etsa, bilimlar ancha mustahkam va o‘zlashtirilishi oson kechadi.

Chet tilini amaliy o‘rganishda lingvistik nazariy bilimlar umuman bayon etilmaydi. Bevosita o‘rganilayotgan til materiallari tahlilga tortiladi. Bu jarayon til o‘rganishni va shu tilde muloqot qilishni ancha osonlashtiradi, ammo yozish texnikasini rivojlantirmaydi. Yozish ko‘nikmasini shakllantirish uchun talabalardan ko‘proq diktant yoki esselar yozish, ularni tanqidiy tahlil etish, ko‘proq lug‘at yodlash, lug‘atlarni asosan so‘z birikmasi yoki ibora tarzida qo‘llash talab etiladi. Chunki lug‘at so‘z birikmasi yoki ibora shaklida yodlansa va amalda qo‘llanilsa, talabaning nutqiy va ijtimoiy kompetensiyasining o‘sishiga yordam beradi.

Ma’lumki, har bir tilda tilning umumiyligini grammatikasiga bo‘ysunmaydigan istisno holatlar mavjud. Mana shunday baxsli vaziyatlarda talabalar ikkilanmasliklari uchun ayni so‘z va iboralarni ona tilidagi tarjimalari va tilning ichki imkoniyatlarini to‘la anglagan holda chuqur his etishlari talab etiladi.

Masalan: o‘zbek tilida artikl yo‘q, fe’llarning assosi har uchala zamonda ham o‘zgarmaydi, uchinchi shaxs kishilik olmoshi ayollar, erkaklar va jonli, jonsiz predmetlar uchun bir xil “U” shaklida qo‘llaniladi. Ammo ingliz tilida bu Grammatik hodisalar o‘zbek tilidan farqlidir. Tilning ichki interferensiyasidan kelib chiqadigan bunday hodisalar o‘sha til doirasida o‘rganilishi zarur.

Chet til o‘qitish mazmuni uch tarkibli ta’limiy hodisadir:

- 1) nutq mavzulari;
- 2) ko‘nikma va malakalarga qo‘yiladigan talablar;
- 3) til materiali.

Til odamlaring bir- birlari bila muomalada bo‘lishi uchun yordam beradigan eng muhim vosita hisoblanadi. Odamlar til vositasida o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Jamiyatning shakllanishida nutqning, tilning o‘rni beqiyosdir.

Chet tillarini samarali o‘rganish, yangi lug‘at boyligini yanada osonroq o‘zlashtirish masalasi ko‘pgina olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, doim dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi. Bugungi jahon glaballashuvi davrida zamon talabi bilan mazkur masalaga bunday yondashilishi, albatta, tabiiy holdir. Ko‘pincha chet tilini o‘rganishda bilingval ta’limni tashkil etilishi bir necha chet tillarini chuqurlashtirib o‘rganishga imkon beradi. Ba’zan chet tillarini o‘rganishga ajratilgan dars soatlari va maxsus darsliklar soni darsni o‘zlashtirishga yetarli darajada bo‘imasligi muammolariga duch kelinadi. Mazkur muammolar yechimini topishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Internet tarmog‘idagi resurslar muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi-yoshlarning darsga qiziqishini oshirishda AKT va Internet tarmog‘idagi resurslar ta’lim samarasini va shu jumladan, til o‘rganishga motivatsiyani oshiruvchi omil bo‘la oladi. AKT vositasida o‘qituvchi o‘z xususiy elektron ta’limiy resurslarini yaratib borishi imkoniyati mazkur soha rivojida muhim ahamiyatga molik.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, agar talaba o‘z ona tilining Grammatik qurilishini yaxshi bilsa,



ichki qonun-qoidalariga amal qilish malakasiga ega bo'lsa, uning mayjud lingvistik tajribasi boshqa chet tilini o'zlashtirishiga ham zamin bo'ladi. Yangi tilning grammatik tushunchalarini va atamalarini tezroq o'zlashtirishiga ko'maklashadi. Tillararo qiyosiy tahlil muhim kasb etuvchi hodisalardandir. Tillardagi fonetik, leksik, sintaktik, morfologik o'xshashliklar va farqli jihatlarni tahlil qila olish til o'rganishni ancha yengillashtiradi.

Globallashuv zamonida an'anaviy dars shakllari talaba yoshlarni qoniqtirmaydi. Ularning ongiga ta'sir o'tkazishning boshqacha usullaridan foydalanish, darslarni zamonaviy audio, video, jonli ko'rgazmalar yordamida tashkil etish materialni yanada tezroq va samarali o'zlashtirilishiga yordam beradi. Masalan, o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchi davlat haqidagi mavzu odatda, an'anaviy usulda bir necha rasmlardan iborat matndan foydalanib, o'qitiladi. Ushbu usul doim ham kutilgan natijani beravermaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida esa bu jarayon taqdimotlar, filmlar, shuningdek, virtual sayohatlar, internet-saytlar yordamida tashkil etiladi. AKT vositalaridan foydalanib, dars o'tish jarayonida chet tilida videosujet namoyish etish yanada ko'proq samarali bo'ladi. O'quvchilar zavq bilan tomosha qiladilar va topshiriqlarni qiziqib bajaradilar. Natijada filmlarni o'z original tilida ko'rib, tilni o'zlashtirishlari oson bo'ladi. Biroq filmlarni to'liq tomosha qilish juda ko'p vaqtini olishi, bunga esa darsga ajratilgan vaqt imkoniyati yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli ham Internet-resurslaridan uyda ham foydalanib, tarmoqdan foydali axborotlarni olishni tavsiya etish mumkin..

Ingliz tilidagi matnlarni, kitob va jurnallarni o'qish so'z boyligimizni oshirishda yordam beradi. Ammo gapirish ko'nikmasida rivojlantirishda tinglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki muloqot davomida biz faqat so'zlovchi emas, balki tinglovchi vazifasini ham o'taymiz. So'zlarning talaffuzini to'g'ri anglay olish, original matnlarni eshitish so'zlardagi fonetik hodisalarni to'liq anglab yetishda muhim yordamchidir. Ingliz tilidagi tovushlarning talaffuzi o'zbek tilidan keskin farq qiladi. Qo'shimchalar imlosida ham tafovutlar ko'zga tashlanadi. O'zbek tilidagi ayrim tovushlar ingliz tilida umuman qo'llanilmaydi. Bunday vaqlarda transkripsiyadan foydalanish yangi til o'rganuvchilar uchun qulayliklarni yuzaga keltiradi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'limning asosiy maqsadi zamonaviy dunyoning barcha voqeqliklariga moslasha oladigan, har qanday vaziyatga mos tez qaror qabul qila oladigan, o'zining aqliy imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir.

Shunday qilib, talabalarning ijtimoiy kompetensiyalari shaxsning ajralmas tarkibiy qismi, faoliyati davomida duch keladigan muammolarni hal etishda muvaffaqiyatni ta'minlovchi ma'lum shaxsiy xususiyatlar yig'indisidir.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Passov E.I. Chet tillarni o'qitish metodikasi asoslari. – M.: Ma'rifat, 1977. – 208 b.
2. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Educational technologies. - T.: Teacher, 2002.
3. Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboyeva F.A. Modern methods of teaching in higher education. - T., 2002.